

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARININING XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Ikramova Nargiza Alisher qizi – assistent
Sherqo‘zieva Guzal Faxritdinovna – t.f.n. dotsent
Salomova Feruza Ibodullayevna – t.f.d. professor
Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Maqola bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri sanalgan oziq-ovqat xavfsizligi va uning mamlakatimizdagi o‘ziga xos xususiyatlari bag‘ishlangan. Shuningdek, oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlaridan olingan namunalar va labaratoriya tekshirish natijalari gigiyenik taxlillar asosida ochib berilgan, hamda tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlaridan olingan namunalar, sut va sut maxsulotlaridan olingan namunalarga nisbatan gigiyenik talablarga mos kelmagan namunalar soni kam foizlarni tashkil etadi, ya’ni 5 ta (0,18%) namuna gigiyenik talablarga mos kelmagan. Sut va sut maxsulotlaridan olingan namunalarda esa 286 ta (15,78%) namuna gigiyenik talablarga javob bermagan.*

Kalit so‘zlar: *aholi(1), oziq-ovqat mahsulotlari(2), oziq-ovqat xavfsizligi(3), salomatlik(4), sog‘lom ovqatlanish(5), kimyoviy ko‘rsatkichlar(6), nitrat(7).*

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ ПИЩЕВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Икрамова Наргиза Алишер кизи – ассистент
Шеркузиева Гузал Фахритдиновна – к.м.н., доцент
Саломова Феруза Ибодуллаевна – д.м.н., профессор
Ташкентская медицинская академия (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: Данная статья посвящена современным проблемам продовольственной безопасности в мире и ее особенностям в стране. А также в статье освещены спектр проделанных работ по осуществлению продовольственной безопасности в Узбекистане на основе проведенного практического анализа и представлены соответствующие выводы и рекомендации. Полученные результаты показывают, что количество негигиенических проб по сравнению с пробами, взятыми из пищевого сырья и продуктов, молока и молочных продуктов, составляет небольшой процент, то есть 5 (0,18%) проб не соответствовали гигиеническим требованиям. В пробах, отобранных из молока и молочных продуктов, 286 (15,78%) проб не соответствовали гигиеническим требованиям.

Ключевые слова: *населения (1), продовольственные товары (2), продовольственная безопасность (3), здоровья (4), рациональная питания (5) химические показатели (6), нитрат (7).*

FOOD SAFETY PROBLEMS AND SOLUTIONS

Ikramova Nargiza Alisher kizi – assistant
Sherkuzieva Guzal Fakhritdinovna – Ph.D., associate professor
Salomova Feruza Ibodullayevna – D.M.Sc., professor
Tashkent Medical Academy (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: This article is devoted to modern problems of food security in the world and its characteristics in the country. The article also highlights the results of chemical and bacteriological studies of food products, and also presents relevant conclusions and recommendations. The obtained

results show that the number of non-hygienic samples compared to the samples taken from food raw materials and products, milk and milk products is a small percentage, that is, 5 (0.18%) samples did not meet the hygienic requirements. In the samples taken from milk and milk products, 286 (15.78%) samples did not meet the hygienic requirements.

Key words: population (1), food products (2), food security (3), health (4), rational nutrition (5), chemical indicators (6), nitrate (7).

Dolzarbliyi: So‘nggi yillarda respublikada oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, sohaga investitsiya mablag‘larini jalb qilish va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,1 milliard AQSh dollaridan va ularning yillik eksporti hajmi 510 million AQSh dollaridan oshdi. Shuningdek, oxirgi uch yilda import o‘rnini bosuvchi 75 turdag‘i 289,9 million AQSh dollari miqdoridagi oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, import hajmi 7,4 foizga kamaydi. Respublika sanoatida oziq-ovqat sanoati ulushi 14 foizdan 16,6 foizga oshdi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston mustaqilligini hamda mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning garovi hisoblanadi [4.10.13]. Xozirda bugun yer yuzida iqlim o‘zgarishi bois yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerni sug‘orish uchun suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi holatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtiriyapti. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narxnavo ko‘tarilishi kuzatilayotir. Albatta, bu holat bizga ham o‘zining salbiy ta’siri ko‘rsatmoqda. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti – FAO prognoziga ko‘ra, ekstremal ob-havo sharoiti va ortib borayotgan geosiyosiy keskinlik global oziq-ovqat tizimiga xavf tug‘diradi hamda savdo va global oziq-ovqat xavfsizligi istiqbolini yomonlashtirishi mumkin.

Ovqatlanish aholi salomatligini belgilovchi muhim omillardan biridir, chunki Butunjahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotiga ko‘ra, inson salomatligini belgilovchi omillarning 50 foizi uning ovqatlanishi va hayot tarziga, 20 foizi naslga va 10 foizi tibbiy xizmat sifatiga bog‘liq ekan. Bundan kelib chiqadiki, insonning yashash tarzi va ovqatlanish madaniyati uning salomatligida muhim o‘rin tutadi. Abu Ali ibn Sino uzoq umr ko‘rishning asosiy omili sifatida to‘g‘ri ovqat-

lanish masalasiga alohida e’tibor qaratgan [4.12]. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash O‘zbekistonning mustaqilligini, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni ta’minlashning garovi hisoblanadi. Yer yuzida iqlim o‘zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerlarni sug‘orish uchun suv tanqisligi, qurg‘oqchilik kabi vaziyatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko‘tarilib bormoqda [3.7.9.11]. Shuningdek, 2008 yilda boshlanib, hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur muammoning keskin tus olisriga sabab bo‘lmoqda. Jahonning 54 mamlakatida oilalar moddiy ahvoli darajasining pasayishi kuzatilgani, 20 dan ziyod davlat aholisining asosiy qismi ochlikdan qiynalayotgani, 12 ta mamlakatda aholining o‘rtacha umr ko‘rishi qisqargani, so‘ngi yillarda dunyo aholisining 840 milliondan ortig‘i ochlikdan aziyat chekayotganligi buning yaqqol dalilidir [5.10.12.13]. Sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan siyosatda turli aholi guruhlarining o‘z an‘analari, odatlari va iqtisodiy sharoitlarining gigiyenik talablardan kelib chiqqan holda ratsional, sog‘lom ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishini ta’minlovchi sharoitlarni yaratishdir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasida “Oziq –ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida” Qonun qabul qilingan [1.2.8.13]. Ushbu xujyatning 10 moddasida quyidagilar belgilab quyilgan: Yangi oziq-ovqat mahsulotlarining, yangi texnologiya jarayonlarini, uskunalarini joriy etishga ular toksikologiya –gigiyenik ekspertizasidan, hayvonlardan olinadigan oziq-ovqat xom ashyosi esa veterinariya ekspertizasidan o‘tkazilgandan hamda mahsulot belgilangan normalar va qoidalarga mosligi haqida davlat sanitariya nazorati organining gigiyena sertifikati yoki xulosasi olinganda va oziq-ovqat mahsuloti davlat reestriga kiritilgandan keyin yo‘l qo‘yiladi [7].


Tadqiqotning maqsadi: Yuqoridagilaridan kelib chiqqan xolda biz oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlarining kimyoviy ko'rsatkichlari xususan nitratlarning qoldiq miqdori va bakteriologik ifloslanish darajasini, hamda sut va sut mahsulotlarini mikrobiologik ko'rsatkichlarini gigiyenik baholashni maqsad qilib oldik.

Tekshirish materiallari va usullarida. Aholi yashash joylaridagi oziq-ovqat mahsulotlar, hamda sut va sut mahsulotlarini tekshirish ob'ekti hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini kimyoviy tekshirishdan o'tkazdik. Bunda olingan natijalar quyidagi qonuniy me'yoriy xujjalardan foydalanildi: O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 16 fevral, PF-36-son Farmoni" Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" hamda O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni

ta'minlashning 2030 yilgacha mo'ljallangan Strategiyasi. Shu bilan birga sut va sut mahsulotlarini mikrobiologik tekshirishdan o'tkazdik va olingan natijalar statistik qayta ishlandi.

Olingan natijalar. Aholi yashash joylaridagi oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlaridan olingan namunalar va labaratoriya tekshirish natijalari hisoblanadi. Nitratlarga olingan umumiy namunalar soni 2806 (100%) bo'lib, ulardan 5 ta (0,18%) namuna gigiyenik talablarga javob bermagan.

Olingan natijalarni tumanlar bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak Sirg'ali tumanidan 217 ta (100%) namunadan 2 tasi (0,92%), Olmazor tumanidan 179 ta (100%) namunadan 3 tasi (1,68 %) gigiyenik talablarga mos kelmag'an (rasm 1). Qolgan tumanlardan olingan namunalarning barchasi nitratlarning miqdori bu'yicha gigiyenik talablarga javob beradi. Eng ko'p namunalar Chilonzor tumanidan 2806 ta dan 418 tasi, eng kam namuna esa Bektemir tumanidan 65 ta namuna olingan (rasm-1).




Rasm 1. Nitratlarni tekshirish natijalari.

Hozirgi vaqtida butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga juda katta ahamiyat beriladi. Mamlakatning rivojlanishi va xavfsizligi uchun millat salomatligi va o'sib kelayotgan yosh avlodning ratsional ovqatlanishi, shuningdek aholining oziq-

ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini oshiradi muhim ahamiyatga ega. Sut va sut maxsulotlaridan bakteriologik ko'rsatkichlarga olingan umumiy namunalar soni 1813 (100%) bo'lib, ulardan 286 ta (15,78%) namunalar gigiyenik talablarga javob bermagan.

Olingan natijalarini tumanlar bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak barcha tumanlardan olingan namunalar gigiyenik talablarga javob bermagan, ammo Yunusobod tumanidan 208 ta (100%) namunadan 66 tasi (31,92%), Yakkasaroy tumanidan 54 ta(100%) namunadan 32tasi (59,09 %) M.Ulug'bek tumanidan 69 ta

(100%) 46 tasi (66,48%) gigiyenik talablarga mos kelmagan. Eng ko'p namunalardir, eng kami esa Chilonzor tumanidan olingan namunalar bo'lib, umumiy soni 393 ta (100%) faqtina 1,78% ya'ni 7 ta namuna gigiyenik talablarga mos kelmagan(rasm 2).



Rasm 2. Sut va sut mahsulotlarini tekshirish natijalari.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki oziq-ovqat xom ashyosi va mahsulotlaridan olingan namunalar, sut va sut maxsulotlariga olingan namunalarga nisbatan gigiyenik talablarga mos kelmagan namunalar kam tashkil etadi, ya'ni 5 ta (0,18%) namuna gigiyenik talablarga mos kelmagan. Sut va sut maxsulotlaridan olingan namunalarda esa 286 ta (15,78%) namuna gigiyenik talablarga javob bermagan.

Xulosa: Yuqorida olingan natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin; aholi iste'mol qilayotgan oziq ovqat xom ashyosi va mahsulotlari tarkibida qoldiq nitratlar miqdori gigiyenik me'yordan oshib ketmagan va iste'mol uchun yaroqli bo'lib, aholini oziq ovqat mahsulotlariga bog'liq salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi; aholi iste'mol qilayotgan sut va sut mahsulotlarining bakteriologik jihatdan doimiy nazorat olib borilishi lozim, shundagina aholini sut va sut mahsulotlariga bog'liq kasallanish xolati kuzatilmaydi yoki past ko'rsatkichlarda bo'ladi.

Adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risida" Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmoni" Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" Toshkent sh., 2024 yil 16 fevral,PF-36-son
3. O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni ta'minlashning 2030 yilgacha mo'ljallangan "Strategiyasi"
4. Sotsialno-ekonomicheskoe polojenie Respubliki Uzbekistan za 2017 god.-T., 2018.-S.51,54-55
5. Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma.- T.:Akademiya, 2012.-12-bet; Ergashev X.N. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sug'urtaning ahamiyati. //“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning oziq-ovqat zahirala-

rini oshirishdagi o‘rnii va roli: muammo va imkoniyatlar” mavzusidagi Oliy ta’lim muassasalararo ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqola va ma’ruzalar to‘plami. 2018 yil 19 may.-T., 2018. - 257-bet.

6. Jonixonov M., Rahmonov S. Oziq-ovqat dasturi: mamlakat taraqqiyoti, iqtisodiyot barqa-rorligi va farovonlikning mustahkam asosi.//Xalq so‘zi, 2014 yil 7iyun.

7. Зеркалов Д.В. Продовольственная безопасность [Электронный ресурс]: Моноография / Д. В. Зеркалов. – Электрон. данные. – К.: Основа, 2009.

8. Лилия Ревенко. Продовольственная безопасность: решение возможно. https://mgimo.ru/files/226753/2012-09_interaffairs_Revenko.pdf.

9. Saidahmedova N. I.// O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash masalalari./“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalı. № 1, yanvar-fevral, 2019 yil

10. Шеркузиева, Г. Ф., Хегай, Л. Н., Самигова, Н. Р., Азизова, Ф. Л., & Курбanova, Ш. И. (2020). Результаты изучения острой токсичности пищевой смеси “Мелла Круассан”. *Журнал//Вестник*, (1), 188-189.

11. Шеркузиева, Г. Ф., Самигова, Н. Р., Шайхова, Л. И., & Жалилов, А. А. (1999). Комплексная гигиено-токсикологическая оценка "Laktonorm-Н". *ИНФЕКЦИЯ, ИММУНИТЕТ и ФАРМАКОЛОГИЯ*, 261.

12. Шеркузиева, Г. Ф., Саломова, Ф. И., Самигова, Н. Р., & Хегай, Л. Н. (2022). *Результаты исследований острой и хронической токсичности пищевой добавки "Fass Hungel"* (Минск конф.) (Doctoral dissertation, Минск).

13. Шеркузиева, Г. Ф., & Касимова, Х. Т. (2017). Токсичность биологически активной добавки "Laktonorm-Н (K Kaliy)" в условиях хронического эксперимента. *Молодой ученый*, (1-2), 10-12.